

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIGA TAVSIYALAR

Jiyanova Gulshan Namozovna

Samarqand shahar 4-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Hozirgi zamonaviy jamiyat oliy ta'limdan keyingi ta'limga boy ichki madaniyatga ega bo'lgan har tomonlama yetuk ijtimoiy faol kardlarni talab qilmoqda. Chunki shaxsiy sifatlar pedagogik kasb va maktab davrida shakllangan shaxs xarakteri o'rtasidagi o'zaro ta'sirni oldindan ko'rishga imkon beradi. Maqolada boshlang'ich sinf uchun zaruriy metodik tavsiyalar keltiriladi.*

Kalit soʻzlar: *shaxs, maktab, differinsial daraja, pedagogik faoliyat, boshlang'ich sinf, metodika.*

KIRISH

Pedagogik faoliyat—bu o‘qituvchining o‘zini tutishi, uning jarayonida talabalar bilan munosabatlari namoyan bo‘ladi, o‘zgartiriladi va rivojlanadi. Shuning uchun, pedagogik professionallikning faoliyat bilan bog‘liq xususiyati bilan bir qatorda uning mazmunini ochishda shaxsiy jihat alohida ahamiyat kasb etadi, chunki o‘qituvchining shaxsiyati murakkab, boy bo‘lgani uchun, u pedagogik faoliyatini belgilaydi. Bundan tashqari, pedagogik professionallikning shaxsiy dunyoqarashini rivojlantirish, ayniqsa istiqbolli o‘qituvchining o‘zini qadrlashi, pedagogik ishning individualligi muhim ahamiyatga ega.

Funksional rol metodologiyasiga asoslangan ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda, boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarining shaxsiyatining professionallik tizimi keng ma’noda pedagogik ish mavzusining xususiyatlari va xususiyatlariga oid tartibga soluvchi talablarni o‘z ichiga oladi. Ilg‘or texnologiyalardan foydalanish va professor o‘qituvchilarning yutuqlari, o‘qituvchilarning erishgan natijalari uchun mukofotlar bilan taqdirlash, ijodiy guruhlarda ishlashda ishtirok etganlik uchun bonus, uslubiy tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazish, talabalarning fan olimpiadalarida yaxshi chiqishlari va hokazo. Ushbu imtiyozlarning mukammal bo‘linishi va har bir o‘qituvchining maksimal foyda bilan ijodiy ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash uchun bir qator shartlar mavjud:

a) Turli maktablarda ishlaydigan o‘qituvchilar taxminan bir xil moddiy- texnik ta’minotga, qulay ijtimoiy va yashash sharoitlariga, bo’sh vaqtini o‘tkazish uchun bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak;

b) Martaba rivojlanish istiqbollari shaxsiy kasbiy potensialga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Aniqlanishicha fanga yaxshi tayyor o‘qituvchilar, pedagogik faoliyatining kommunikativ sohasida qiyinchilikka duch kelishadi. Bundan kelib chiqadiki, o‘qituvchilar kasbiy faoliyatidagi bu sohaga birinchi o‘rinda psixologik yordam va qo‘llab quvvatlash yetishmaydi.

Bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligi o‘qituvchini o‘zining dars “ko‘rinishini” yaratishda uning psixofiziologik yosh qobiliyatini qay darajada hisobga olishiga bog‘liqdir.

Bolalarning ushbu ijtimoiy va lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘qituvchi bu yoshdagi bolalar juda himoyasiz ekanligini bilishi kerak, shuning uchun ular qiyin vaziyatdan chiqib olishi uchun uchun dalda, rag‘bat kerak, ammo qattiq tanqid o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini yo‘q bo‘lishiga sabab bo‘lib, haqiqiy zarar yetkazishi mumkin.

Yetti-sakkiz yoshli bolalar yaxshi rivojlangan raqobat ruhiga ega va shuning uchun g‘alaba qozonish va birinchi bo‘lish istagi hamma narsadan ustun turishi mumkin. Ushbu bolalar bilish xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘qituvchi ayniqsa: ularga qilingan ishdan zavqlanishni ta‘minlashi kerak (ta‘lim jarayonidan ham, tozalikka e‘tibor qilishdan va ovqatlanishdan ham, chunki bola zavq olishni istaydi, o‘qituvchi va ota-onasi esa tirishqoqlik va katta sabr bilan bola olayotgan zavqni “ta‘lim zavqi” ga aylantirishi kerak bo‘ladi).

O‘qituvchi shuni esda tutishi kerakki, bu yoshda bolalar juda yuqori mahsuldorlikka ega, ammo ishlash sifati past (bajarilgan ishning sifatiga e‘tibor berish kerak, natijada o‘z ishidan g‘ururlanish kuchayadi), shuningdek, yaratish istagini qo‘llab-quvvatlash - yasash, chizish, qo‘shiq aytish, raqsga tushish, rang berish, kompozitsiya qilish, to‘qish (bolalar qo‘llabquvvatlanishini his qilishlari va kattalarning munosib bahosini ola olishi muhimdir, bu yaratish uchun to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri usullar yo‘q ekanligini, ular buni tushunganlarini anglatadi), bu esa kelajakda muallif sifatida o‘zini namoyon qilishi, ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qituvchi bolalarning o‘yin ishtiyoqidan foydalanishi kerak (olti yoshli bolalar uchun o‘yin yetakchi faoliyat bo‘lib qolmoqda), she‘rlar o‘qish, topishmoqlarni topish, chunki bu ularga zavq olib keladi, va bundan tashqari, o‘qitiladi (o‘yin orqali o‘rganish kitoblardan foydalanishdan ko‘ra ko‘proq samara beradi). Hozirgi birinchi sinf o‘quvchilari - 7 va 8 yoshli bolalar va o‘qituvchilar ko‘pincha ularning ruhiyatidagi farqlarni sezmaydilar, buni prinsipial hodisa sifatida hisobga olmaydilar, bu esa o‘z navbatida bolalarning ruhiy salomatligining buzilishiga olib keladi.

Aytish lozimki, yetti yoshli birinchi sinf o‘quvchisini rivojlanish darajasi jihatidan maktabgacha tarbiyachi bo‘lib qoladi va u uchun o‘quvchi sifatidagi o‘rni haligacha faoliyatining noma‘lum sohasi bo‘lib qoladi. Xulosa shundan iboratki O.Ya Savchenko ta‘kidlaganidek, “boshlang‘ich maktabda o‘qish bosqischi bola hayotidagi eng muhim davrlardan: uni qanday yashab o‘tkazsa, uning o‘zini o‘zi anglashga bo‘lgan intilishlarini maktab bilan qanday bog‘lashi va maktabning talablarini qanday qabul qilishiga ko‘p narsa bog‘liq...”. Bularning barchasi bola hayotining istiqbolini, maktab muvaffaqiyatini va kelajak hayotini belgilaydi. Shu bilan birga, bolaning intellektual, iroda fazilatlarini, xarakter xususiyatlarining rivojlanishi, uning jamiyatdagi rolini ham belgilaydi. Boshlang‘ich maktab o‘qituvchisining ta‘siri bunday hollarda o‘quvchi hayotini qayta baholash qiyin.

O‘zning bola taqdiridagi roli va ahamiyatini anglash, u haqida ko‘proq bilish uchun maxsus yo‘nalish (rag‘bat) yaratadi.

Zamonaviy maktab oldiga qo‘yilgan vazifalar, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar umumiy rivojlanishining o‘sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar, sinfda o‘qish mazmuni va o‘qitish metodlariga o‘zgartirish kiritishni talab etmoqda. Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darsliklarida amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar berilgan. O‘qish darsida hikoya, she‘r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat va topishmoq kabi janrlar o‘rganiladi. Bunday turli janrdagi asarlar yaratilishi, uslubi jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘quvchilarga ham ta‘siri turlicha bo‘ladi. Shuning uchun, turli janrdagi badiiy asarlarni o‘qishda o‘qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma‘lum bir voqea, hayotning muhim tomonlarini umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya boshlang‘ich sinflar uchun mos janr. O‘quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi.

Hikoyani o‘qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziy o‘rin egallaydi. Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilarga o‘z fikr mulohazalarini bildirishi uchun vaqt beriladi. O‘qilgan hikoya yuzasidan beriladigan savollar orqali o‘quvchilarga asarning yoqqan-yoqmaganligi, qaysi qahramon xarakteri ta‘sir etgan- etmaganligini aniqlanadi.

Shundan so‘ng hikoya syujeti, voqeaning yonalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, asarning asosiy g‘oyasini ochishga qaratilgan savollar beriladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni ertakning o‘tkir, maroqli syujeti, favqulodda ajoyib voqealari maftun etadi. Lekin hikoya janri hayotiyligi bilan o‘ziga xosdir. Hikoyada inson hayoti, u bilan bog‘liq voqealar haqidagi lavhalar bayon etiladi. O‘quvchilar qahramonlarning xarakteri va xususiyatlari bilan qiziqadilar. Boshlang‘ich sinf “O‘qish” darsliklarida berilgan hikoyalar mavzu jihatidan xilma-xil bo‘lib, qahramonlar ham bir-biridan farq qiladi. O‘quvchilar hikoyadagi qahramonlarga baho berishda, o‘z shaxsiy-axloqiy tushunchalaridan kelib chiqib ta‘riflaydilar. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilar bilan asarni tahlil qilib, ular nutqiga personajlarning axloqiy, intellektual, emotsional sifatlarni kiritishdan iborat. Bu adabiy qahramonlarning xarakterini yaxshi yoritish shartlaridan biridir. Psixolog olimlarning tekshiruvlaridan ma‘lum bo‘lishicha, asarni idrok qilishga, bilim olishga xizmat qiladigan komponentlar bilan birga, uni emotsional-estetik xis etish ham kiradi. Hikoyada qahramonning nima qilishi emas, nima uchun shunday qilganini bilish muhimdir.

Shuningdek o‘qituvchi o‘quvchi bilan yakka yoki guruh bilan ishlashda ish turlari bo‘yicha topshiriqlar ko‘rsatilgan tavsiyalarni ishlab chiqishi va o‘quvchilarga topshiriqlar tartib raqamini ko‘rsatishi mumkin. Ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba‘zan noto‘g‘ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi savolni juda o‘ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o‘ylashga majbur etadigan, qahramonning xatti-harakati

voqealarning bog‘lanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni o‘zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarni aniqlashga yordam beradigan bo‘lishi lozim. O‘quvchi asarda qahramonning xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. O‘qish darslarida qahramonlarni tahlil etishda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Asar qahramoni bilan do‘stlashishni xohlarmiding?
2. Sen uning o‘rnida bo‘lsang nima qilar eding?
3. Hikoya qahramonining hamma ishlari to‘g‘ri deb o‘ylaysanmi?
4. Nima uchun u shunday qildi?
5. Uning munosabati senga yoqdimi?
6. Qanday maslahat bergan bo‘larding?
7. Asardagi voqealar ichida bo‘lishni xohlarmiding?
8. Voqeada kim bo‘lib qatnashishni xohlar eding?

Hikoyani o‘qish bilan bog‘liq holda o‘tkaziladigan ijodiy ishlar ham o‘quvchilar nutqini, tafakkurini o‘stiradi.

Umuman olganda, asarning janriy xususiyatini hisobga olib, o‘ziga xos usullarini tanlash lozim. Agar ushbu metodik tavsiyalardan maqsadli foydalanilsa, o‘quvchilar ijodiy faolligi ortadi, mustaqil izlanishi va fikrlash doirasi kengayadi. Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda ham badiiy asarlarni o‘rganishda o‘quvchi shaxsiga kuchli ta‘sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos bilimlarning o‘zlashtirilishini ta‘minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Йўлдошев Ж.Ф. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари. – Тошкент: «Ўқитувчи». – 1998. –208 б.
2. Зарипов К.З. Педагогическая диагностика в системе непрерывного повышения квалификации учителей: Методические рекомендации Под. Ред. А.Е. Марона. – Л: НИИ ООВ АПН СССР. 1989. –39 с.
3. Зеер Э.Ф., Павлова А.М., Сыманюк Э.Э. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход: Учебное пособие. – М., 2005.
4. Котова И.Б., Шиянов Е.Н. Педагог: профессия и личность. – Ростовна-Дону, 1997.
– 144 с.